

## KORRUPSIYANI OLDINI OLISH VA UNGA QARSHI KURASHISHDA DAVLAT DASTURLARI ORQALI FUQAROLARNING HUQUQIY ONGINI OSHIRISH MASALALARI

*A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish  
va yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot instituti  
—Ta'lim menejmentini kafedrasida katta o'qituvchisi*  
**Rejapova Dilafuz Akramovna**

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada fuqarolarning huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirib borish qonun ustuvorligini ta'minlash va qonuniylikni mustahkamlashning eng muhim shartlaridan biri ekanligi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-noyabrda —Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PF 200-son Farmonidagi Aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga qaratilgan vazifalar to'g'risida fikr yuritilgan.*

**Tayanch so'zlar:** *Qonun, farmon, davlat dasturi, fuqarolar, huquqiy ong.*

### KIRISH

Respublikamizda milliy huquq tizimini tubdan isloh qilish, jamiyatda huquqiy madaniyatni shakllantirish borasida bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston tarixida ilk bor korrupsiya so'zi yangi tahrirdagi Konstitutsiyada qo'llanilib, korrupsiyaga qarshi kurashish vazifasi Bosh qomus darajasida mustahkamlandi va quyidagilar belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining birgalikdagi vakolatlari (93-moddaning 19-bandi)ga ko'ra:

O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi har yilgi milliy ma'ruzani eshitadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining mutlaq vakolatlari (95-moddaning 1-bandi) ga ko'ra:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan respublika korrupsiyaga qarshi kurashish organining rahbarini saylaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolatlari (109-moddaning 13-bandi) ga ko'ra: respublika korrupsiyaga qarshi kurashish organining rahbari lavozimiga nomzodni taqdim etadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining vakolatlari (115-moddaning 10-bandi) ga ko'ra:

ijro etuvchi hokimiyat organlarining ishida ochiqlik va shaffoflikni, qonuniylik va samaradorlikni ta'minlash, ularning faoliyatida korrupsiya holatlariga qarshi kurashish, davlat

xizmatlarining sifatini oshirish va ulardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish bo'yicha choralar ko'radi .

Respublikamizda huquqiy targ'ibot sohasida olib borilayotgan o'zgarishlar, amalga oshirilayotgan demokratik jarayonlarda aholining, jumladan, yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish muhim ahamiyatga ega. Tinch va obod yurtimizda inson baxt- saodati va farovonligi yo'lida amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati nafaqat fuqarolarning siyosiy ongi, balki ularning huquqiy madaniyati darajasiga ham ko'p jihatdan bog'liq.

Shaxsning huquqiy madaniyati rivojlanishida oilaning, mahallaning, ta'lim muassasalarining, tom ma'noda esa davlat va jamiyatning tutgan o'rni shak-shubhasiz kattadir.

Mening nazarimda, inson hayotida oilada ko'rgan tarbiyasi uning kelajak taqdirini belgilaydi. Halollik, bironing haqini yemaslik og'ir gunoh ekanligini bolaligidan qalbida jo qilingan kishidan yomonlik chiqmaydi. Uning ana shu go'zal fazilati butun umrini bezaydi. Bu esa o'z-o'zidan yurt taraqqiyoti, jamiyat rivojiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Mavzuning dolzarbligi. 2017-yil 3-yanvarda O'zbekiston Respublikasining —Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi O'RQ-419-son Qonuni qabul qilingan.

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatini olib borishda davlat dasturlari va boshqa dasturlarning o'rni ham muhim hisoblanadi.

Davlat dasturlari va boshqa dasturlar ushbu qonunning qoidalari samarali ijro etilishini ta'minlash, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha kompleks va tizimli chora-tadbirlar ko'rish maqsadida ishlab chiqiladi hamda amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-noyabrdagi —Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PF 200-son Prezident Farmoni davlatimiz rahbarining tashabbuslari va muhim ko'rsatmalari asosida ishlab chiqilgan bo'lib, ushbu hujjat bilan aholini qiynab kelayotgan qator dolzarb masalalar o'z yechimini topmoqda.

Misol uchun, 2023-yil 1-dekabrda boshlab Ochiq ma'lumotlar sifatida joylashtirilishi kerak bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlar ro'yxati quyidagi ma'lumotlar bilan to'ldiriladi.

1. —Hajl ziyoratiga borishdagi firibgarlik holatlarini oldini olish va navbatga turish tizimini ochiq va shaffof bo'lishini ta'minlash maqsadida hududlar kesimida —Hajl tadbiriga borish uchun navbatda turgan ziyoratchilarning yagona onlayn navbati to'g'risidagi (ziyosatga boruvchi shaxsning arizasi navbatga qo'yilgan sana va ro'yxatdagi tartib raqami) ma'lumotlar;

2. Bolalarni davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qabul qilish uchun berilgan arizalar navbati (ro'yxati) to'g'risidagi (ariza navbatga qo'yilgan sana, ro'yxatdagi tartib raqami, yosh guruhi hamda tashkilot raqami) ma'lumotlar.

3. Davlat organlari va tashkilotlarida davlat xaridlarini amalga oshirish tartib- taomillarini belgilovchi xarid komissiyasining ichki idoraviy tartibi (nizom, reglament, yo'riqnoma yoki boshqa ichki idoraviy hujjat).

4. Markaziy, hududiy va tizim tashkilotlarida bo‘sh ish o‘rinlari, ishga qabul qilish shartlari, nomzodlarga qo‘yiladigan talablar va taqdim qilinishi lozim bo‘lgan hujjatlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar.

5. Davlat organlari va tashkilotlari tomonidan nodavlat notijorat tashkilotlarga taqdim etilgan grant va ijtimoiy buyurtma loyihalari haqidagi ma‘lumotlar, shu jumladan g‘olib bo‘lgan nodavlat notijorat tashkilotlari va ularning buyurtma doirasida bajargan ishlari yuzasidan hisobotlari haqidagi ma‘lumotlar doimiy yangilab boriladi va u barcha uchun ochiq bo‘ladi.

Yana bir muhim o‘zgarish sifatida quyidagilar:

a) falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun ilmiy kengash tomonidan o‘tkaziladigan dissertatsiya himoyasi (yopiq ilmiy ishlar bundan mustasno);

b) o‘rta-maxsus va professional ta‘lim muassasalarining, (shu jumladan, —Temurbeklar maktablari harbiy-akademik litseylarining) test sinovlari hamda Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarga kirish imtihonlari;

v) oliy ta‘lim muassasalari bazasidagi harbiy ta‘lim fakultetlariga (harbiy kafedra) qabul qilishdagi saralash tanlovlarining quyidagi bosqichlari:

umumjismoniy tayyorgarlikni baholash;

chaqiriqqacha boshlang‘ich tayyorgarlik dasturi bo‘yicha bilim darajasini baholash internet tarmog‘i orqali jonli efirga uzatish tartibi joriy etiladi.

Yana bir yangilik sifatida, davlat organlari va tashkilotlari byudjetdan tashqari jamg‘armalariga kelib tushayotgan mablag‘lar, misol uchun – jarima, davlat mulkini ijaraga berish va sotish, pullik xizmatlardan kelib tushgan mablag‘larning qaysi maqsadlarga sarflanayotgani jamoatchilikka ochiq e‘lon qilib boriladi.

Shuningdek, davlat xaridlarida tovarlarning narxlarini nazorat qilish mexanizmlari takomillashtirilib, tovarning boshlang‘ich narxi davlat xaridlarining maxsus axborot portalida e‘lon qilingan narxlar asosida shakllantiriladi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonunchilik buzilganligi holatlari yuzasidan ma‘muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risida bayonnomalar tuzish, shuningdek, xarid qilish tartib-taomillarini to‘xtatib turish vakolatini berish nazarda tutilmoqda.

Farmon bilan 9 ta ustuvor yo‘nalish, 30 ta chora-tadbirlardan iborat Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha 2023–2024-yillarga mo‘ljallangan davlat dasturi tasdiqlandi.

Dastur, korrupsiyaga qarshi kurashishning qonuniy asoslari yanada takomillashtiriladi; korrupsiya to‘g‘risida xabar beruvchilarning huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjat loyihasi ishlab chiqiladi; vazirlik va idoralarning kadrlar bilan ishlash yo‘nalishidagi faoliyati hrm.argos.uz elektron bazasi orqali amalga oshiriladi;

davlat organlari va tashkilotlari byudjetdan tashqari jamg‘armalariga kelib tushayotgan mablag‘larning sarflanishi ustidan samarali jamoatchilik nazorati o‘rnatiladi;

davlat xaridlari tartib-taomillarini buzgan mansabdor shaxslarga nisbatan jazo muqarrarligini ta‘minlashga qaratilgan normativ-huquqiy hujjat loyihasi ishlab chiqiladi;

maktabgacha va maktab ta'limi sohasida —Korrupsiyasiz sohal loyihasi amalga oshiriladi;  
—Ochiq Hukumat hamkorligi xalqaro tashkilotiga a'zo bo'lish choralari ko'riladi;  
korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 2030-yilgacha mo'ljallangan milliy strategiya  
ishlab chiqiladi.

Davlat dasturining VIII bo'limi aynan Aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini  
yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga qaratilgan  
bo'lib unda quyidagi vazifalar belgilangan:

22- bandida Korrupsiyaga qarshi kurashishda fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat notijorat  
tashkilotlari va ommaviy axborot vositalarining rolini oshirish.

23- bandida Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni doirasida keng  
ko'lamli  
—Aksilkorrupsiya haftaligi'ni o'tkazish.

24- bandida Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlarning  
samaradorligini aniqlash va oshirish maqsadida tizimli ravishda ijtimoiy tadqiqotlar va so'rovlar  
tashkil etib borish va natijalarini keng jamoatchilikka e'lon qilish.

25- bandida Yoshlarda korrupsiyaga nisbatan toqatsiz munosabatni shakllantirish.

26- bandida Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar, bu borada  
erishilgan natijalarni muhokama qilish va tushuntirishga bag'ishlangan targ'ibot tadbirlarini  
amalga oshirish ishlarini mexanizmlari va muddatlari hamda mas'ullar belgilangan.

Taklif va tavsiyalar. Demak, milliy taraqqiyotga to'siq bo'lib kelayotgan korrupsiyani  
bartaraf etish yo'lida dadil qadamlar tashlanmoqda. Eng asosiysi, korrupsiyaga qarshi kurashda  
huquqni muhofaza qiluvchi idoralar qanchalik harakat qilmasin, xalqimiz bu jirkanch illatga  
murosasiz bo'lmas ekan, ta'sirchan jamoatchilik nazoratini o'rnatmas ekan, bu baloga qarshi  
samarali kurashni tashkil eta olmaymiz.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, jahonning ko'plab mamlakatlarida korrupsiya dolzarb  
masalalardan biri ekanligi e'tirof etilmoqda. Korrupsiya chegara bilmaydi, biroq u jamiyat  
taraqqiyotining barcha jabhalariga, qadriyatlar tizimiga kirib borib, odob-ahloq me'yorlariga putur  
yetkazadi. Erkin va demokratik tamoyillarga, fuqarolarning hokimiyat organlariga ishonchini  
yo'qotadi, davlat, jamiyat rivojiga to'sqinlik qiladi.

Davlat organlari va boshqa tashkilotlar korrupsiyaga qarshi kurashish maqsadida aholining  
huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz  
munosabatni shakllantirish bo'yicha quyidagi ishlarni amalga oshiradi. Jumladan, korrupsiyaga  
qarshi kurashish masalalariga doir tushuntirish ishlarini amalga oshirish, huquqiy tarbiya va  
ta'limni, ilmiy-amaliy tadbirlarni tashkil etish, o'quv-uslubiy va ilmiy adabiyotlarni ishlab chiqish  
yo'li bilan zarur chora-tadbirlar ko'radi.

Aholining huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish ishlari amalga oshirishda  
quyidagicha ishlarni amalga oshirishni takomillashtirish zarur.

korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini  
yuksaltirish:

jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish;  
davlat organlari va boshqa tashkilotlar xodimlarining huquqiy savodxonligini oshirish.

Xulosa o\_rnida shuni aytishimiz mumkinki, ta'magirlik o'z xizmat lavozimidan foydalanib, pora olish evaziga jinoyat sodir qilish hollari eng avvalo yuqorida ta'kidlaganimizdek, huquqiy madaniyati past va qonunlarni yaxshi tushunmaydigan ayrim insonlar tomonidan sodir etilayotgani sir emas. Vaholanki, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishda, korrupsiya holatlarining oldini olishda fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish muhim ahamiyatga ega.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O\_zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: «O\_zbekiston», 2023-yil 30-aprel.
2. O\_zbekiston Respublikasining —Korrupsiyaga qarshi kurashish to\_g\_risidal gi Qonuni. 2017-yil, 3-yanvar, O\_RQ-419-son
3. O\_zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. 1994-yil 22-sentyabr.
4. O\_zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi —Jamiyatda huquqiy ong va huquiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to\_g\_risidal PF- 5618-son Farmoni.
5. O\_zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagi —O\_zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora- tadbirlari to\_g\_risidal PF-5729-son Farmoni.
6. O\_zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi —Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo\_lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to\_g\_risidal gi PF 6257-son Farmoni.
7. O\_zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-noyabrdagi —Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to\_g\_risidal gi PF 200-son Prezident Farmoni.

#### **INTERNET MANBALARI:**

1. <http://lex.uz>
2. <http://www.gov.uz>
3. <http://www.uzedu.uz>
4. Veb-sayt: <http://anticorruption.uz>
5. [https://t.me/antikor\\_uzb](https://t.me/antikor_uzb)